

INNOVATSION TADBIRKORLIK VA UNING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI

ИННОВАЦИОННОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ЕГО МЕСТО В СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ

INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP AND ITS PLACE IN THE MODERN ECONOMY

NamDTU O'qituvchisi:

Jalolova Muazzamhon Akbarjonovna

NamDTU Teacher:

Jalolova Muazzamhon Akbarjonovna

Annatatsiya

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. Natijada so'nggi o'n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, Kichik biznes, tadbirkorlik, rivojlanish

Аннотация

Необходимо отметить, что за годы независимости в Узбекистане создана стабильная законодательная база, закрепляющая главенство частной собственности, являющейся основой рыночной экономики. Созданы благоприятная деловая среда и надежные правовые гарантии для быстрого развития малого бизнеса и частного предпринимательства, которые являются важным фактором формирования класса собственников среднего звена, устойчивого роста экономики страны, создания новых рабочих мест и повышения доходов населения. В результате за последние десять лет доля малого бизнеса в структуре валового внутреннего продукта увеличилась с 31,1 процента до 52,5 процента, уровень занятости в этой сфере увеличился с 49,7 процента до 74,5 процента от общей численности занятых в отраслях экономики. Более 47 процентов доходов населения формируют доходы от предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: рыночная экономика, малый бизнес, предпринимательство, развитие

Abstract

It is necessary to note that during the years of independence, a stable legislative framework was created in Uzbekistan, which strengthens the primacy of private property, which is the basis of a market economy. A favorable business environment and reliable legal guarantees were created for the rapid development of small business and private entrepreneurship, which are an important factor in the formation of a middle-class owner class, sustainable growth of the country's economy, creation of new jobs and increasing the income of the population. As a result, over the past ten years, the share of small business in the structure of gross domestic product has increased from 31.1 percent to 52.5 percent, the employment rate in this sector has increased from 49.7 percent to 74.5 percent of the total number of people employed in economic sectors. More than 47 percent of the population's income comes from income from entrepreneurial activity.

Keywords: market economy, small business, entrepreneurship, development

“Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik yili” Davlat dasturiga muvofiq, joriy yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes muhitni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o'tkazish taqiqlandi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshmoqda, kichik biznes subyektlarini, ayniqsa, ularning yuqori texnologik uskunalarni xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlash mexanizmi takomillashtirildi.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining davlat, soliq va nazorat idoralari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma'muriy reglament to'liq ishlab chiqilmagan. Ochiqligi ta'minlanmagan ko'plab ruxsat berish tartiblari hamon saqlanib qolmoqda. Nazorat idoralarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda. Kichik biznes mahsulotlarini hududiy va jahon bozorlariga olib chiqish bo'yicha amaliy mexanizm yaratilmagan.

Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tumanlar hokimliklarining muhim vazifalari deb hisoblansin:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha byurokratik to'siq va g'ovlarga barham berish, davlat boshqaruvi funksiyalarini qisqartirish va tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshirilayotgan turli ruxsat berish me'yorlari hamda cheklash tartiblarini keskin qisqartirish;

Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya davrida iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bu – innovatsion tadbirkorlikdir. An'anaviy biznes modellari o'rnini tezlik bilan yangi texnologiyalarga, ilg'or bilimlarga va yaratuvchanlikka asoslangan yondashuvlar egallamoqda. Innovatsion tadbirkorlik nafaqat mahsulot yoki xizmatlarni takomillashtirish, balki butun iqtisodiy tizimni yangilash va barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion tadbirkorlik nima?

Innovatsion tadbirkorlik – bu mavjud bozor talablariga javob beradigan, shu bilan birga ilgari mavjud bo'lmagan g'oya, texnologiya yoki yondashuv asosida yangi mahsulot yoki xizmatlar yaratish orqali iqtisodiy foyda olish faoliyatidir. Bunday tadbirkorlik asosan yuqori texnologiyalar, IT, biotexnologiya, ekologik toza energiya va boshqa zamonaviy yo'nalishlarda tez rivojlanadi.

Innovatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri

Innovatsion tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotda quyidagi jihatlar bilan muhim o'rin egallaydi:

1. **Yangi ish o‘rinlari yaratiladi.** Startaplar va innovatsion kompaniyalar ko‘pincha yosh mutaxassislar, dasturchilar va muhandislar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.
2. **Mahsulot va xizmatlar sifati oshadi.** Raqobatbardoshlikni ta‘minlash maqsadida kompaniyalar yangilik kiritishga intiladi.
3. **Milliy iqtisodiyot diversifikatsiyalanadi.** Innovatsiyalar yangi sanoat tarmoqlari paydo bo‘lishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytiradi.
4. **Eksport salohiyati oshadi.** Innovatsion mahsulotlar xorijiy bozorlar uchun jozibali bo‘lib, mamlakatga valyuta tushumini ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari

O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda innovatsion rivojlanishga katta e‘tibor qaratmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, startap ekotizimini shakllantirish, texnoparklar, inkubatorlar va akseleratorlar faoliyatini kengaytirish orqali innovatsion tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratilmoqda.

Yoshlar va talabalar orasida innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish maqsadida turli grantlar, tanlovlar va treninglar o‘tkazilmoqda. Biroq, hali ham bu yo‘nalishda yechimini kutayotgan muammolar mavjud: moliyaviy manbalarning cheklanganligi, tajribali mentorlar yetishmasligi, bozor infratuzilmasining to‘liq shakllanmagani va boshqalar.

Innovatsion iqtisodiyotning umumiy asoslari, fanning predmeti, maqsad va vazifalari Insoniyat paydo bo‘lgandan buyon ular o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ayirboshlash, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish munosabatlari to‘xtovsiz rivojlanish jarayonini boshidan kechirib kelmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF 4947-sonli farmoni. 2017- yil 7-fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-4720-sonli farmoni. 2015- yil 24- aprel.
3. G‘ulomjonovna, Y. Y. "Xoshimjon o‘gli, YS (2022). Influence of the Shape of the Working Surface of the Screed on the Grain Quality Mixture on the Performance of the Shell." *International Journal of Development and Public Policy* 2.2: 43-47.
4. Khoshimjon, Y. S., and M. Mavludakhon. "THE AMOUNT OF GRAIN LEAVING FROM THE CORE AND SHELL HOLE AND ITS REDUCTION." *Scientific Impulse* 1.4 (2022): 371-374.

5. Raxmanov S. V., Mo'Minjonov N. N., Yuldoshev S. X. Mahalliy chiqindilarni utillashtirish bo'yicha tashviqot-targ'ibot ishlarini olib boorish //Строительство и образование. – 2025. – Т. 4. – №. 2. – С. 390-392.

6. Shaxboz xoshimjon o'g'li Y., Saxodaliyevna I. I. D. S. D. GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR BARQAROR TARAQQIYOTGA TAHDIDI VA UNING SOLMOG'I //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 3. – №. 26. – С. 133-141.

7. Kh, Yuldoshev Sh. "PREPARING THE POPULATION FOR PRACTICAL COURSES ON CIVIL PROTECTION AND ITS CONDUCT AND TRAINING." *Экономика и социум* 5-2 (108) (2023): 493-498.